
IFTORLIK DASTURXONI YOZILDI

Farg'ona shahridagi "Yangi hayot" bazmgohida iftorlik tadbiri o'tkazildi. Unda shahrimizdagi diniy ulamolar, sektorlar rahbarlari, keng jamoatchilik vakillari, faollar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj xonadonlar vakillari uchun dasturxon yozildi. Ishtirokchilar Davlatimiz rahbari tomonidan mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lida amalga oshirilgan ezgu ishlar, yurtimizda muqaddas dinimiz sofliğini saqlash borasida olib borilayotgan amallar haqida fikr almashishdi.

Tadbirda viloyatimizda o'tkazilayotgan "Ma'naviyat festivali"ning targ'ibot guruhi a'zolari O'zbekiston xalq artisti Mansur Toshmatov, Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Shaxloxon Axrorova, tarix fanlari doktori Ra'noxon O'rozovalar ham ishtirok etishib, yig'ilganlarni ramazon oyi bilan qutlashdi. Madaniy dastur yig'ilganlarga xushkayfiyat ulashdilar.

Shuningdek ushbu tadbirda Qur'on oyatlari o'qilib, turmushimiz farovon, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lishini, xonadonlarimizda hamisha tinchlik hukm surishini tilab duolar qilindi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-31 10:44:30